

Xalqaro Nordik universiteti “Iqtisodiyot va pedagogika” fakultetida 1-oktyabr – O‘zbek tili bayrami: Ona tilimizga bag‘ishlangan keng tadbir

Alimuxametov Usmonjon Azimjonovich
Xalqaro Nordik Universiteti
Tyutor tarbiyachi
u.alimuxametov@nordicuniversity.org
+998950777050

BAYONNOMASI

21.10.2024 yil

Nº_____

Toshkent sh.

Qatnashdilar:

Sh. I. Mustafakulov – Xalqaro Nordik universiteti
rektori;

E. Umarov – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti
dekanı;

Z. Uralbayev – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti
dekanı muovini;

X. Mamajonova – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti
dekanı muovini;

Tyutor tarbiyachi pedagoglar jamoasi;

va **Xalqaro Nordik universitetining talabalari;**

2024-yilning 21-oktyabr kuni Xalqaro Nordik universitetida O‘zbek tili davlat tili maqomiga ega bo‘lganining 35 yilligi keng nishonlandi. Bu kun nafaqat til, balki milliy madaniyatimizning, o‘zligimizning ramzi sifatida katta ahamiyatga ega. Universitetda bo‘lib o‘tgan bayram tadbiri tilimizning buyukligi va uning jahon madaniyatidagi o‘rni haqida chuqur o‘ylashga undadi.

Tadbirni universitet rektori Sherzod Mustafakulov ochib, barchani til bayrami bilan tabrikldi. U ona tilimizning jamiyatdagi ahamiyatini, uning yuksalishi va rivojlanishida til me’yorlari, an’analari, va milliy qadriyatlarimizni saqlashdagi rolini ta’kidladi. Rektor, shuningdek, har bir sohada ona tili yordamida yutuqlarga erishishning muhimligini alohida e’tirof etdi, bu tilning ruhiyatimizni shakllantirishdagi o‘rni ulkanligini ta’kidladi.



Bayram tadbiriga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, taniqli shoirlar va adabiyot arboblari taklif etildilar. Jumladan, mashhur yozuvchilar Bobur Bobomurod va Tursun Ali talaba-yoshlarni tilimizni asrab-avaylashga va uning soqligini saqlashga chaqirdilar. Ularning nutqlari, tilimizning hayotdagi beqiyos ahamiyatini anglashga va uni asrab-avaylashga undadi.

Adabiy anjumanda, ona tilimiz uchun jon tikkan va o'z hayotini unga bag'ishlagan buyuk farzandlarimizning nomlari ehtirom bilan yodga olindi. Ularning ijodi va hayoti talabalarga o'rnak bo'lib, bu sohada erishilgan yantuqlar haqida so'zlab berildi. Ayniqsa, o'zbek adabiyotining yirik namoyandalari, ularning metin iroda va jasoratlari tilimizni rivojlantirishdagi o'rni haqida so'z yuritildi.

Universitetning bo'lajak jurnalistlari o'zbek tilida she'rlar o'qidilar, musiqa yo'nalishi talabalari esa tilimizning go'zalligini musiqada ifodaladilar. Ularning ijrosi bayramga o'ziga xos, jonli ruh bag'ishladi. Tadbirda qatnashgan talaba-yoshlar birgalikda o'zbek tilining go'zalligini yanada chuqurroq his etdilar.

Shuningdek, Daryodil ijodkor - estrada qo'shiqchisi, bastakor Shuhrat Daryo ham bayramga o'zining musiqa dasturi bilan ajoyib hissa qo'shdi. U o'zining yangi qo'shig'ining premyerasini talabalar va ustozlar davrasida namoyish etdi. Uning jonli ijrosi har bir ishtirokchining qalbiga yo'l topib, tilimizning musiqaviy xususiyatlarini ham yorqin tarzda ko'rsatdi.

O'zbek tili bayrami kunida universitet jamoasi birlashib, tilimizga bo'lgan muhabbatni, unga hurmatni yanada oshirishga qaror qildi. Bu bayram, milliy madaniyatimizni, tilimizni yanada rivojlantirishda birlashish, o'zlikni saqlash va bu buyuk merosni kelgusi avlodlarga yetkazish uchun yangi kuch bag'ishladi.